

BERUNIYNING "QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR"

ASARINING ADABIYOTIMIZDAGI O'RNI

*Rasulova Rayxon Baxritdinovna, Toshkent viloyati
Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Jumanazarova Umidaxon Rustambekovna, Toshkent
Viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi*

Bugungi kunda buyuk allomalarimizning juda ko'plab buyuk asarlari, jumladan, badiiy, tarixiy, falsafiy, didaktik asarlari o'zbek olimlarimiz tomonidan barmoq bilan sanarli darajada o'rganilyapti. Bu esa juda achinarli holat desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki bunday asarlarimizda biz uchun kerak bo'lgan ma'lumot va isbotlangan faktlar talaygina. Ushbu asarlar nainki o'zbek adabiyoti, balki tarix uchun ham bebaho xazina desam adashmayman. Mana shunday asarlar qatoriga Ibn Sinoning "Hay Ibn Yaqzon", Rashiddin Hamadoniyning "Jome ut-tavorix", Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va boshqa ko'plab asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Bular to'g'risida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lmas ekanmiz yosh avlodga yetkazishda turli qiyinchiliklarga duch kelaveramiz. To'g'ri izlanishlar yetarlicha dermiz, ammo eng xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Oliy ta'lim dasturlariga kiritilganligi bois juda ko'p talabalarda asarlarni o'rganishda muammolarga duch kelganliklarini kuzatdim. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bunday ilmiy izlanishlarni ko'paytirishimiz lozim. Shunga ko'ra Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari haqida o'z izlanishlarimni bayon qilaman. Sharqda ilk Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy (973, 4-sentyabr — 1048, 11-dekabr) umumjahon tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan buyuk aql-zakovat sohibidir. Uning dunyoqarashi X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshida Markaziy Osiyoda rivojlangan feodalizm qaror topayotgan g'oyat murakkab, jo'shqin voqealarga boy tarixiy vaziyatda shakllandi. Birinchi ustози bo'lmish Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq uni Evklid geometriyasi va Ptolemey asarlari bilan tanishtiradi. Ibn Iroq unga Xorazmning turli shaharlaridagi madrasalarda va mashhur ustozlaridan ta'lim olishga yaqindan yordam bergan. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy va ma'rifiy-pedagogik hamda psixologik qarashlarining shakllanishida qomusiy olimlardan Muhammad al-Xorazmiy (780-850), Abu Abbos Ahmad Farg'oniy (IX asr), Marvoziy (IX asr), Javhariy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abul Vafo Buzxoniy (840-938), Abu Said as-Sijiy (951-1024) hamda yunon olimlaridan Fales, Pifagor, Arximed, Galen, Gippokrat, Evklid, Ptolemey, Platon, Aristotel, hind olimi Bramagupta va boshqalarning asarlari ta'lim va tarbiya maktabi vazifasini o'tadi. Beruniy bu olimlarning asarlarini o'qib bilish uchun yoshligidanoq arab, fors, yunon, sanskrit, yahudiy tillarini puxta o'rgandi. Astronomiya, astrologiya, falsafa, matematika, fizika, geodeziya, geologiya,

farmakognoziya, mineralogiya, tarix, adabiyotshunoslik, tarjimonlik, lug'atshunoslik kabi sohalarda juda ko'p tadqiqotlar olib borib, badiiy asarlar yaratib buyuk samaralarga erishdi. Mahmud G'aznaviyning o'g'li Mas'ud davrida Beruniy o'zining falakiyot va fizikaga oid mashhur "Qonuni Mas'ud" asarini yozib, uni Mas'ud nomiga bag'ishlaydi. Shuningdek, olim ana shu davrda yaratilgan "Joylar chegaralarini aniqlash uchun turar joylarning masofalarini belgilash" ("Geodeziya") asarida Quyosh va Oyning tutilish sabablarini, joylarning jo'g'rofik kengliklarini aniqlash yo'llarini tushuntirib beradi. "Javohirlarni bilish va umumiy kitob" ("Mineralogiya") asarida qimmatbaho tosh va minerallarni, ularning xossa va xususiyatlarini, solishtirma og'irligi, qattqlik darajasi, rangi, tiniqligi va boshqa fizik xossalarni bayon qilgan. "Saydana" ("Farmakognoziya") asarida Beruniy qadimgi yunon va o'rta asr Sharqi, Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va arab mamlakatlarining madaniyat tarixini tadqiq qilish ishiga ham ulkan hissa qo'shdi. Olimning eng mashhur asarlaridan biri «Osor ul-boqiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»)dir. Beruniy 150 dan ziyod bebaho asarlar yozib qoldirdi. Ulardan bizgacha 30 dan ortiq asar yetib kelgan, xolos. Abu Rayhon Beruniyning birinchi yirik asari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" hisoblanadi. Asarning arabcha nomi "Al osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" bo'lib, Yevropada "Xronologiya", o'zbek sharqshunosligida "Osor al-boqiya" nomi bilan mashhurdir. Ma'lumotlarga qaraganda Beruniy bu kitobni Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va o'sha yerda tamomlagan. Bu vaqtda olim endigina 27 yoshga kirgan edi. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Beruniy fanning hamma sohalariga qiziquvchi buyuk olim ekanligini yana bir bor ko'rsatdi va unga bu asari juda katta shuhrat keltirdi. Hatto bugungi kunga kelib ham, ushbu kitob O'rta Osiy xalqlari, ularning madaniyati va tarixini o'rganishda juda muhim ahamiyatga egadir. Beruniy turli xalqlarning kelib chiqishi, ya'ni etnogenezi va etnik tarixiga oid ham diqqatga sazovor fikr-mulohazalar bildirgan. Shuningdek, asarda qadim xalqlarning taqvim tizimi hamda alohida kunlari haqida ham juda qiziqarli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Beruniy o'z asarida xalqlar etnografiyasi, yil taqvimlari haqida yozar ekan, har bir oy va unda nishonlanadigan Hayit, Navro'z hamda turli bayram kunlari to'g'risida to'xtalib o'tadi. Jumladan, olim xalqlarning bayramlari sabablarini turli vaqtlarda kelib chiqqan afsona va rivoyatlari orqali misollar keltirish yo'li bilan tushuntirishga harakat qiladi. Uning yozishicha yilning birinchi oyi farvardin moh hisoblanib, ushbu oyning birinchi kuni Navro'z bayrami nishonlanadi. Olim Navro'z haqida yozar ekan eronliklar orasida ushbu kun bilan bog'liq turli afsonalar mavjudligini, u o'z asarida faqat haqiqatga yaqin deb bilganlari keltirib o'tayotganini ta'kidlaydi. "Aytishlaricha," – yozadi olim, – "shu kuni Xudo quyi olamni yaratib, unga yaratilgan ilk odam – Qayumarsni podshoh qilgan" Ba'zi afsonalarga qaraganda esa Navro'z Xudo maxluqotni yaratgan 6 kunning birinchisidir. Hashviyaliklar afsonalariga ko'ra Sulaymon ibn Dovud uzugini yo'qotib shoxligi qo'lidan ketdi. 40 kundan o'tgandan keyingina uzugi o'z qo'lga qaytib keladi. Bu bilan birga unga ravnaqi, sehri ham

qaytadi. Butun odamzod yig'ilib, uni qutlab "Navro'z muborak" – "Yangi kun keldi", - deganlar. Va shundan boshlab bu kun Navro'z deb ataldi. Sulaymon shamolga buyurdi, shamol uni ko'tarib osmonga uchdi. Qarshisidan qaldirg'och chiqib uyamni bosib o'tma, ichida tuxumlarim bor bor,dedi. Sulaymon Qaldirg'ochga rahmi kelib uning uyasini aylanib o'tdi. Shamol uni yerga qo'ygach, qaldirg'och minnatdorchilik sifatida tumshug'ida suv keltirib unga suv sepdi hamda chigirtkaning bir oyog'ini hadya qildi. Olim fikricha eronliklar Navro'zda arg'imchoqlar uchishgani, havoga varraklar uchirishgani, bir birlariga shakar hadya qilishlarining sababi mana shu afsona bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. "Afsungarlar"-davom etadi Beruniy - "Navro'z kuni tong otganda birov gap gapirishdan oldin 3 qoshiq asal yalab, uch bo'lak (xushbo'y) mum tutatsa, bu ko'p kasalliklarga shifo bo'ladi",- degan fikrlarni bildiradi. Bayram va marosimlar to'g'risida yozar ekan, Xorazmliklarning hayitlari ikki xil bo'lganligini, ya'ni birinchisi, tabiat voqea hodisalari bilan bog'liqlari: yil boshi bayrami, gulxanda isinish bayrami, yog'liq non yeyish kuni, Mina kechasi kabilar, ikkinchisi esa Islom dini kirib kelgunga qadar o'tkazilgan diniy marosimlar: arvohlar uchun qabrlarga ovqat qo'yish marosimi va shu kabilar to'g'risida ma'lumotlar bergan. Beruniyning shaxsan o'zi ham hayitlarni ikki guruhga bo'lish lozimligini yozib o'tgan: bular diniy va dunyoviy hayitlar. Olim dunyoviy hayitlarni mukarram hayitlar deb ataydi. Manbalarga ko'ra ushbu hayit kunlari podshoh va raislar o'zlari uchun marosimlar o'tkazganlar hamda ular orqali nafslarini sevintirishga, ruhlarini shodlantirishga erishganlar, maqto'v va madhga sazovor bo'lganlar, o'z xalqlarining muhabbatini jalb qilganlar, duolar olganlar. Bu kunlarni nishonlash oddiy xalq uchun ham bir marosimga aylangan. Ana shu hayitlar faqir va kambag'allar fikricha hayotlarining torligini kenglikka aylantiruvchi, umid va orzularini yuzaga chiqaruvchi, halokatga yaqinlashganlarida ularni xatar va balodan qutqaruvchi sabablarning biri bo'lgan. Diniy hayitlarga kelganda, ularni davlatning shariat arboblari, imomlari, faqihlari va dindorlari keltirib chiqarganlar, deydi Beruniy. Bunday bayramlarni ijro etishdan maqsad yuqorida sanab o'tilgan sabablarga o'xshash, lekin bu asosan oxirat kuni uchun o'tkazilgan. Beruniy shu kabi hikoyalarda turli urf-odat va marosimlarning kelib chiqish negizini ko'rsatib bergan. Hikoyalarni saralashda qayd etganimizdek eng ishonchli va tarixiy manbalarda isbotlanganlarinigina asarda kiritgan. Ya'ni har bir hikoyani ham diniy, ham ilmiy jihatdan taqqoslab o'rganib chiqqan desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarda urf- odat va an'analardan tashqari didaktik ruhdagi rivoyatlarni ham uchratishimiz mumkin. Bunga misol qilib "Ochni to'yg'az", "Yomonning kasofati" va boshqa hikoyalarni misol qila olamiz. "Ochni to'yg'az" hikoyasi quyidagicha: "Xalifa Umar ibn Abdulaziz o'g'li Abdullohning ming dirhamga bir qimmatbaho toshni sotib olganini eshitib, o'g'liga xat yozibdi: "Menga yetib kelgan xabarga qaraganda, bir uzuk olibsan. Senga nasihatim shu, darhol o'shani sotib, uning qiymatiga mingta ochning qornini to'yg'az. O'zingga bo'lsa kumushdan uzuk qildir, uning ko'zi ham o'zidan bo'lsin". Abdulloh otasi aytganday qilibdi. "Bu hikoya mazmunida eng qimmatbaho mol-dunyo ham bir

misikin odamning ko'nglini ko'targandagi va unga g'amxo'rlik qilgandagi savobni bermaydi deyilmoqda. Ya'ni yuqorida ta'kidlaganimizdek Beruniy diniy jihatdan ham rivoyatlarni o'rganib asarga kiritgan. Ya'ni islomda erkaklar kumush uzuk taqadilar. Xalqimizda "Kim bir bechoraga bir yaxshilik qilsa, Olloh unga o'n chandon ortiq qilib qaytarar." degan gap bor. Ochlarga taom bermoqlik ham juda katta savob bo'lishini juda yaxshi bilamiz. Yana bu hikoyada Xalifa Umarning xalqini o'ylashi, hatto eng qimmatbaho bo'lgan narsalardan ham ko'ra xalqining g'ami bilan yashashi hikoyaning asosini tashkil etadi. Yana shunday bir ibratli hikoyalardan biri bu "Yomonning kasofati" hikoyatidir. Bu hikoya ham didaktik, ya'ni tarbiyaviy ruh bilan sug'orilgan. "Yomonning kasofati" hikoyati quyidagicha: Bir kishi, ittifoqo, o'zi tanimagan bir guruh bilan hamroh bo'lib qoldi. Bu kimsalar qaroqchilar bo'lib, bir qishloqni bosib, xarob qilib qaytayotgan edilar. U kishi o'g'rilar bilan birga biroz yo'l bosgach, qasoskorlar yetib kelib, ularni qo'lga oldi. Bu kishi garchi o'g'rilarga sherik bo'lmasa ham, ularga qo'shilgani uchun azobga duchor bo'ldi. Xalqimizda bir maqol bor "Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi, yomonga yaqin yursang balosi yuqadi." Yuqoridagi hikoyada aynan maqolning isbotini ko'ramiz desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu asrlar osha sinalgan narsa. Hikoyaning mazmunidan shuni anglash mumkinki, hamroh tanlashda hech qachon adashmaslik lozim. Ya'ni uni sinab, yaxshilab bilib bo'lgandan so'nggina birgalikda safar qilish eng yaxshi usullardan biri. Axir aytishadi-ku "Sinalmagan otning sirtidan o'tma" deb. Bu ayni haqiqat. Yomon odamning kasofati doim tegadi. Asosiy g'oya esa "Yaxshiga yondosh, yomondan qoch" maqolida o'z aksini topgan. Abu Rayxon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asari tarkibidagi afsona va rivoyatlar ma'lum bir tarixiy voqeani dalillash yoki rad qilish uchun emas, zotan, bu asarning yozilish sabablarini ko'rsatadi, ammo amalda oshirish nihoyatda murakkab bo'lganini yozadi. Ayniqsa, qadimgi xalqlar va ularning yil hisoblari haqidagi rivoyatlar chalkashib ketgani, yolg'on afsonalar va asossiz ma'lumotlarga to'lib- toshib ketganini ta'kidlaydi. Ayni paytda, Beruniy rivoyat va afsonalarning haqiqiylikni ajratib, saralab olish uchun imkon boricha harakat qiladi. Beruniyning bu tamoyili ham tarixiylik, ham haqqoniylikka asoslanganini sezish qiyin emas. Yolg'on va soxta rivoyatlar qadimgi Sharq xalqlarining hisoblari haqidagi aniq ilmiy xulosalarga xalaqit berishi, ayniqsa, yolg'on xulosalarga olib kelishi haqida yozadi. Beruniyning asosiy maqsadi turli xalqlardagi yil hisobiga aniqlik kiritish, ularda ilgari tadqiqotchilar yo'qolgan kamchiliklarni tuzatish edi. Beruniy yil hisobi uchun rivoyat va afsonalar, hikoyatlarning nihoyatda muhim dalil ekaniga ishonadi, ularga suyanadi, ishonchsiz, shubhali rivoyatlar va afsonalarni rad qiladi. Uning rivoyat va afsonalarni tanlashda o'zi tayangan asoslangan usul haqida shunday yozadi: "Men tutgan yo'l va belgilangan usul oson emas, balki uzoq va qiyin yo'l. Xabar va rivoyatlarga ko'plab kirib qolgan yolg'on so'zlarning hammasi ham ravshan emas. Boshqa dalillar bo'lmaganda ba'zilarining yolg'onligini bilib bo'lmasdi. Odamlar hozir ham, o'tgan zamonlarda ham shunday tabiiy hodisalarga duch kelgan, agar o'shanday hodisalar uzoq zamonlarda yuz bergan deb hikoya qilinsa, albatta, biz unga

ishonmasdik. Xalqlardan biriga tegishli xabarlarining hammasini aniqlab bilishga inson umri kifoya qilmaydi-yu, hamma millatlar haqidagi xabarlarni bilishga qanday kifoya etsin?! Bu mumkin emas!"Ushbu asarda ilmning ulug'lanishi haqidagi rivoyatlarni ham uchratishimiz mumkin. Xususan qadimda ilmga juda katta e'tibor qaratishgan. Har bir ilmni o'rganish uchun o'sha davrda asosiy talablardan biri qilib tinimsiz mehnat va sabr-qanoatni qo'yishgan. Ilmni muqaddas deb bilishgan. Buning yorqin misolini quyidagi "Suqrotning javobi" parchasida ko'rishimiz mumkin: "Qadimgi yunonlarda teriga yozish odati bo'lmagan edi. Keltirilishicha, Suqrot dan bu haqda so'rashganda: "Ilmni tirik kishilar qalblaridan o'lik qo'ylarning terilariga ko'chirmayman", -degan ekan". Beruniyning rivoyat va afsonalarga bunday yondashuvidan o'zining pozitsiyasini aniqlashtiradi: u mazkur asarida nafaqat etnograf tarixchi, balki adabiyotshunos olim sifatida namoyon bo'ladi. Dunyo xalqlari adabiy jarayonidan yaxshi xabardor, o'z davridagi va o'zidan oldingi adabiy jarayonning qonuniyatlarini biladi. Rivoyat va afsonalar xalqqa yaqin adabiy janri bolgani uchun ham Beruniyning diqqatini ko'proq tortgan. Beruniy o'z davriga yaqin bo'lgan rivoyatlarga murojaat etish tarafdori bo'lgan. Xo'sh nima uchun? Negaki rivoyatlar zamondan uzoqlashgani sari asliyatdan, haqiqiylikidan uzoqlashadi. Beruniy bu hodisaning qonuniyat ekanini adabiyotshunos sifatida yaxshi biladi. Beruniyning afsonalarni saralab olish tamoyilini quyidagicha bayon qiladi: "Ish shu yo'ldan boradigan bo'lgach, u rivoyatlarning davrimizga eng yaqin va eng mashhurini, songra yaqinroq va mashhurog'ini olishimiz lozim. Ularning ba'zilarini o'z arboblaridan qabul qilib, tuzatish mumkin bo'lganini tuzatamiz, boshqalarini o'z holicha qoldiramiz. Shunda biz keltirgan rivoyatlar haqiqatni qidiruvchi va hikmatni sevuvchining boshqa rivoyatlar ustida ish yurgizishga yordamchi va bizga muyassar bo'lmagan narsalarga erishish uchun yo'lovchi bo'ladi. Biz xudoning xohishi va yordami bilan shunday qildik". Ko'ryapmizki, Beruniy rivoyat va afsonalarni tanlash metodlarini ishlab chiqib bizga taqdim qilmoqda. Bu metod esa yana bir bor tarixiylik prinsipi badiiy asarni tanlash, o'rganish va undan foydalanishga alohida e'tiborni tortadi. Abu Rayhon Beruniy rivoyatni haqiqatni qidiruvchi deb ataydi. Beruniy bu gapi bilan rivoyatlarning asardagi o'rniga baho beradi. Beruniy uchun tarixiylik tamoyili bilan haqiqatni qidiruvchi rivoyat bitta vosita, bu rivoyatlar ma'lum bir voqelikni yoki detalni isbotlash uchun keltirilgan yagona dalil. Rivoyatlar boshqalar uchun yo'l ko'rsatuvchi ekanini Beruniy ta'kidlar ekan, bundan rivoyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga ham ishora qilganini anglash mumkin. Ayni paytda rivoyatlar ilmiy tafakkur, fikr-qarashlar va xulosalar uchun muhim zamindir. Ammo bunda ham Beruniy tarixiylik tamoyilidan chekinmaydi, chunki tarixiylik tamoyili ishonchlik va haqqoniylikning isboti. Beruniy asarining boshidayoq adabiy jarayonning, xususan, rivoyatlarning ijtimoiy, ma'naviy hayot uchun nihoyatda ishonchli omil ekanini ham dalillaydi. Beruniy rivoyatlarini asariga kiritganda, albatta, saralash tamoyiliga ham rioya qiladi. Shu bois rivoyatlarga tanqidiy nuqtai nazardan yondashadi. O'zi tanlagan tamoyillar asosida o'zidan oldin o'tgan olimlarning tarixiy asarlarini qo'rqmasdan

tanqid qiladi. Uning saralash tamoyili shundan iborat ediki, manbalarni tahlil qilganda, rostday ko'ringan, lekin isbotsiz rivoyatlarni o'zi tekshirib ko'rmaguncha ularga ishonmaydi. Beruniyning zukko va sinchkov adabiyotshunos, tarixchi ekanligi mana shu asarida yaqqol namoyon bo'ladi. Buning ustiga, Beruniy har bir manbaga, dalilga xolis qaraydi. Uning uchun diniy aqidalar to'siq emas, uning uchun aqlning va bilimdonlikning o'zi kifoya emas. Beruniyning o'z oldiga qo'ygan vazifasi va amal qilgan tamoyili shuki, u dalillarni saralab olish va qiyoslash yo'lidan ketadi va buni quyidagicha izohlaydi: "...mendan so'ralgan narsaga yetkazuvchi vositalarning eng muhimi - qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar, o'tmish avlodlar to'g'risidagi xabarlarini bilishdir, chunki ularning ko'pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasm-u rusum va qoidalaridan iboratdir. Aqliy dalil keltirish, kuzatilganlarga qiyos qilish yo'li bilan u xabarlarini bilib bo'lmaydi. Buni faqat "kitob ahllari" va turli din arboblari, e'tiqodlarga amal qiluvchi har bir maslak va ishonch egalari ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan bilinadi. So'ngra buni ko'pchilik kishilarning tabiatini pastkashlashtiradigan yomon axloqdan, haqiqatni ko'rishga imkon bermaydigan omillardan o'zni tozalagandan keyin, ularning isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi. Ana shu aytib o'tganim haqiqiy maqsadga yetkazuvchi eng yaxshi yo'l va bunga dog' tushiruvchi shak-shubhani yuvib tashlash uchun eng kuchli yordamchidir. Garchi qattiq urinib zo'r mashaqqat cheksak ham, o'shandan boshqa yo'l bilan maqsadga erisholmaymiz" (Beruniy. 40-b.). Beruniy bu asarni yaratayotgan vaqtda har bir voqea-hodisa haqidagi afsonlarga xolis baho berish va ishonchli bo'lgan hamda dalil va isbotlari aniq bo'lganlarinigina qabul qilganligini asarida keltirilgan ushbu gaplaridan ham bilish mumkin: «... Shubhani aniq, noma'lumni ma'lumga qo'shish biz yurgan yo'lga loyiq emas». «Qiyos qilinuvchi narsa bilan qiyos uchun olinuvchi narsa orasini, isbotlanuvchi narsa bilan isbot orasini birlashtiruvchi bir sabab bo'lmasa, u dalil va misollar qabul etilmaydi». Umuman, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Mineralogiya" asarlarida keltirilgan afsonalar, rivoyatlar, hikoyatlar XI asrdagi adabiy janrlar va adabiyotshunoslik haqida to'laqonli tasavvur beradi. Beruniy har bir detalga alohida e'tibor bilan to'xtalib ham ilmiy, ham adabiy asar yaratishga erishadi. Ushbu asarni har gal qayta va qayta o'qigan kitobxon o'zi uchun ko'proq yangilik topib boraveradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Beruniy asarlari qadimgi xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi, uning qadimgi madaniyati va etnografiyasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, "Osor al boqiya" uzoq o'tmish tariximizning buyuk yodgorligi hisoblanib, bugungi kun kitobxonini, albatta, tanishib chiqishi va ilm ahli tomonidan yanada chuqurroq o'rganilishi lozim bo'lgan manbalardan biri hisoblanadi. Yanada chuqurroq o'rganish boshlasak, bundan ham ko'p bo'lgan muhim ma'lumotlarni o'zimiz uchun topa olishimiz, shubhasiz. O'rganish ishlari ko'payaversa, talabalarga ham bu mavzularning mohiyatini ochib berish oson kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev.H.D.O‘zbek adabiyoti tarixi.O‘quv qo‘llanma.—T.: Cho‘lon nomidagi NMIU,2019.—152 b
2. Nasimxon RAHMONOV. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. - T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. - 556 bet.
3. www.ziyouz.com